

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

Professor, **Babayeva Dono Razzaqovna**
Magistrant, **Ochilova Xilola Sheraliyevna**
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası

Jahonda bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ularning yoshiga xos bo‘lgan psixologik va pedagogik xususiyatlarning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ota-onalar bilan tarbiyachilarning o‘zaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish; bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda qo‘l keladigan usul va metodlarni aniqlash hamda nazariy-amaliy jihatlarini belgilash; nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida badiiy asarlar misolida bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish metodikasini yaratish; didaktik o‘yinlar va ularning bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rnini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda tarbiyachi kasbiy kompetentligining ahamiyati va bolalarning mustaqil fikrlash darajasini baholash mezonini ishlab chiqish muammolari bugungi kunda alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan

islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishni, fikrlashi, shuningdek, MTT larda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachilar uchun ona tiliga doir qo‘llanmalar, ta’lim tashkilotlaridagi eng yaxshi ish tajribalari haqida maqolalar to‘plamlari muntazam ravishda chop etila boshlandi. Nutq rivojlanishi qonuniyatlari to‘g‘ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta’minlaydi. Bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo‘lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta’minlash imkonini beruvchi bolalar o‘quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilnoqda.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. – Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. – Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. – Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarakatrof bilan tanishish

jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur. «Mustaqil fikrlash – inson oldiga qo‘yilgan har qanday masalani aniq maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi, hayotiy tajribasi, imkoniyati doirasida turli yo‘l va usullardan foydalangan holda mustaqil ravishda hal qilishga yo‘naltirilgan aqliy va ruhiy faoliyatidir», deya ta’rif berish mumkin. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida o‘z aksini topadi . Bulardan biri tashabbuskorlik insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘ya bilishi, ularni amalga oshirish yo‘lidagi muammolar yechimini topa olishi, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni qo‘llashidagi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Uning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalardan oqilona foydalanish va yechimni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko‘rinadi. Mazkur faoliyatning tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inson tafakkuriga xos bo‘lgan tashabbuskorlik, pishiqlik va tanqidiylik sifatlarini aniqlashning o‘zi ham tarbiyachi-o‘qituvchilardan bilimdonlikni, aqliy zo‘riqishni, bugungi til bilan aytiladigan bo‘lsa, kompetentlikni talab qilishi ham haqiqatdan yiroq emas.

Adabiyotlar:

1. Mirjalilova S., R.To‘laganova. Talim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyonoma. –T., 2008.
2. Kayumova N.M. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. -T., Manaviyat-2017yil.
3. Nurkeldiyeva D.A. va boshq. Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar. –T., 2007